



*2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot*

# TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5891,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,6 mln. AQSH dollariga yoki 1,9 % ga ko‘paydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr 2024- y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **5 891,6** 1,9 %

(2023- y.: **5 783,0**)



Saldo

2024- y.: **-2 044,4** (2023- y.: -2 012,8)




### Eksport

2024- y.: **1 923,6** 2,0 %

(2023- y.: **1 885,1**)


TSA dagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **3 968,0** 1,8 %

(2023- y.: **3 897,9**)



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 1 923,6 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,0 % ga ko‘paydi) va import hajmi 3 968,0 mln. AQSH dollariga (1,8 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-2 044,4** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.













### **TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR** (2024- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

<b>XXR</b>	<b>Rossiya</b>	<b>Qozog‘iston</b>	<b>Turkiya</b>	<b>Germaniya</b>
TSA – 1 673,2	TSA – 1 458,5	TSA – 752,5	TSA – 365,3	TSA – 184,4
Eksport: 589,1 Import: 1 084,1	Eksport: 564,7 Import: 893,8	Eksport: 127,2 Import: 625,3	Eksport: 202,8 Import: 162,5	Eksport: 13,3 Import: 171,1
 28,4 %	 24,8 %	 12,8 %	 6,2 %	 3,1 %
<b>Qirg‘iz Respublikasi</b>	<b>Belarus</b>	<b>Tojikiston</b>	<b>Afg‘oniston</b>	<b>Italiya</b>
TSA – 133,3	TSA – 123,3	TSA – 107,6	TSA – 91,0	TSA – 89,7
Eksport: 38,3 Import: 95,0	Eksport: 19,3 Import: 104,0	Eksport: 54,7 Import: 52,9	Eksport: 90,0 Import: 1,0	Eksport: 13,6 Import: 76,1
 2,3 %	 2,1 %	 1,8 %	 1,5 %	 1,5 %




## YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
<b>XXR</b>	<b>1546,6</b>	<b>1673,2</b>
 Eksport	467,9	589,1
Import	1078,7	1084,1
<b>Rossiya</b>	<b>1286,6</b>	<b>1458,5</b>
 Eksport	577,7	564,7
Import	708,9	893,8
<b>Qozog'iston</b>	<b>854,5</b>	<b>752,5</b>
 Eksport	106,3	127,2
Import	748,2	625,3
<b>Turkiya</b>	<b>437,5</b>	<b>365,3</b>
 Eksport	254,1	202,8
Import	183,4	162,5
<b>Braziliya</b>	<b>231,6</b>	<b>168,2</b>
 Eksport	0,0	0,0
Import	231,6	168,2
<b>Belorus</b>	<b>108,9</b>	<b>123,3</b>
 Eksport	21,6	19,3
Import	87,3	104,0
<b>Germaniya</b>	<b>113,7</b>	<b>184,4</b>
 Eksport	9,3	13,3
Import	104,4	171,1
<b>Italiya</b>	<b>156,2</b>	<b>89,7</b>
 Eksport	17,8	13,6
Import	138,4	76,1
<b>Shveysariya</b>	<b>7,8</b>	<b>54,4</b>
 Eksport	2,0	4,8
Import	5,8	49,6
<b>Tojikiston</b>	<b>101,6</b>	<b>107,6</b>
 Eksport	48,2	54,7
Import	53,4	52,9




## HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)\*





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga ko‘paydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 55,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-dekabr oylarida 2 646,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 842,8 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 803,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

Rossiya – 24,8



Qozog'iston – 12,8



Qirg'iz  
Respublikasi – 2,3



Belarus – 2,1



Tojikiston – 1,8



Turkmaniston – 0,3



Ozarbayjon – 0,4



Ukraina – 0,4



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,8%), Qozog'iston (12,8%) hamda Qirg'iz Respublikasi (2,3%) davlatlari bilan qayd etildi.






Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 905 taga yetdi va ular tomonidan 1 780,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.





## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>1 885,1</b>	<b>1 923,6</b>	<b>91,0</b>	<b>102,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	236,4	278,0	93,0	117,6	14,5	12,5
Ichimliklar va tamaki	7,4	7,5	158,3	103,4	0,4	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	59,5	63,9	80,8	107,4	3,3	3,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	9,2	27,4	2,6 m.	2,9 m.	1,4	0,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2,9	10,3	198,5	3,5 m.	0,5	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	76,9	96,1	90,7	124,9	5,0	4,1
Sanoat tovarlari	1153,4	1127,6	86,0	97,8	58,6	61,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	61,5	75,0	96,5	122,0	3,9	3,3
Turli xil tayyor buyumlar	243,3	226,3	121,9	93,0	11,8	12,8
Xizmatlar	34,6	11,5	42,3	33,3	0,6	1,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,2 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (61,2%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,5%) va turli xil tayyor buyumlar (12,8%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-dekabr oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga kamaygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi)




2024- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 86,6 % ni tashkil etdi.

### TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-dekabr, mln.AQSH doll.)\*





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-dekabr oyida 198,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 79,2 mln. AQSh dollariga teng 132,6 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 53,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 47,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 152,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-dekabr, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va  
rezavorlar  
47,1 ming tonna  
53,2 mln.  
AQSH dollari

Uzum  
16,9 ming  
tonna  
16,7 mln.  
AQSH dollari

Yeryon-g'oglar  
2,2 ming tonna  
2,9 mln. AQSH  
dollari

Sabzavotlar  
132,6 ming tonna  
79,2 mln. AQSH  
dollari



## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 3 968,0 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,7%), sanoat tovarlari (13,9%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (8,9%) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,1 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 3 968,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 59,9 mln. AQSH dollariga yetdi.




## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>3 897,9</b>	<b>3 968,0</b>	<b>108,7</b>	<b>101,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	648,8	737,3	90,8	113,6	16,6	18,6
Ichimliklar va tamaki	5,6	8,4	108,2	149,7	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	566,1	618,7	82,1	109,3	14,5	15,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	249,4	364,2	174,6	146,0	6,4	9,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	101,7	96,1	138,4	94,4	2,6	2,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	385,6	353,1	106,3	91,6	9,9	8,9
Sanoat tovarlari	599,9	550,4	103,3	91,8	15,4	13,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1185,5	1058,6	143,0	89,3	30,4	26,7
Turli xil tayyor buyumlar	93,2	74,8	71,6	80,3	2,5	1,8
Boshqa tovarlar	3,6	46,5	70,8	13,2 m.	0,1	1,2
Xizmatlar	58,5	59,9	101,9	102,4	1,5	1,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 45,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga ko'paydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 78,5 % ni tashkil etdi.



### TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-dekabr, % da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)

